

## “FOLKLOR ETNOGRAFIK ANSAMBLINI TASHKIL ETISH USLUBIYATI”

*Respublika musiqa va san'at kolleji*  
*“Folklor san'ati” kafedrasи katta o'qituvchisi*  
**Rajabov Botir Ne'matovich**

**Annottatsiya:** *Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga meros bo'lib qolgan betakror folklor xazinasini kelajak avlodlarga yanada rivojlantirib, yanada sayqallab etkazish davr talabi bo'lib turgan ushbu kunda fol'klor san'atini fan sifatida ta'larning barcha tizimlarida o'qitish, ta'lim standartlariga javob beradigan yangiliklar va o'quv qo'llanmalar yaratish vazifalari dolzarb bo'lib turibdi.*

**Tayanch So'zlar:** *Folklor etnografik ansambl, folklor musiqa ijrochiligi, ansambl, cholg'u, xonanda, sozanda, ansambl rahbari, kuy – qo'shiq, qadriyat, urf-odat, marosim.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida”gi qarorida ta'riflanganidek – “har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og'zaki ijodi folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'analarini saqlash va rivojlantirishda beba ho manba hisoblanadi”.

Sobiq «sho'ro»lar davrida o'zbek xalqining milliy qadriyatları: udumları, urf-odatlari, musiqa merosi, folklor musiqa ijrochiligi “eskilik sarqiti” sifatida chegaralab qo'yilgan va bu xalq ijodi unutilib ketayozgan edi. Shu sababli, xalqimizning eng qadimiy kuy-qo'shiqlari, raqslarini ijro etishga, targ'ib qilishga yo'l yopilgan edi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kunlardan boshlab, san'at va madaniyat xodimlari, san'atshunoslar, etnograflar, folklorshunoslar zimmasiga yuksak ma'suliyat yuklandi. Bu ma'suliyat - milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, milliy musiqa merosimiz xazinalarini qidirib topib, qayta jlonlantirish bo'ldi. Fol'klor musiqa san'ati qisqa davr ichida qayta tiklandi va o'sdi, rivoj topdi. Respublikamizning barcha viloyatlarida folklor jamoalari tashkil etildi. Mamlakatimiz bo'y lab barcha ommaviy tadbirlarda, umumxalq bayramlarida fol'klor jamoalari ishtiroki ta'min etildi. Folklor festivallari, ko'rik-tanlovlardan tashkil etildi. Folklor festivallari, ko'rik-tanlovlardan tashkil etildi. Buning natijasida xalq orasida fol'klor ijrochiligi yanada rivojlandi, professional folklor ijrochilar etishib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustivor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan. Unda shunday ta'kidlangan – “Oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va

mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish dolzarb vazifamizdir".

Xalqimizning milliy kuy-qo'shiqlari zamirida yosh avlodni mardlikka, halollikka va poklikka chorlovchi hamda ma'naviy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi tuyg'ular mujassam etilgan. Albatta, bu kabi ijodiy va ma'suliyatli vazifani amalga oshirish uchun eng avvalo xalq musiqa ijodining yaxshi bilimdoni bo'lgan malakali mutaxassislar bo'lmog'i lozim. Musiqa darslarining mazmun-mohiyati ko'p jihatdan o'qituvchining bilim saviyasi hamda milliy kuylarni bilish, ularni badiiy yetuk tarzda ijro eta olishi va umuman, madaniyat darajasi kabi omillarga bog'liqdir. Ammo shu bilan birga, hali musiqa ijodini yosh avlodga singdirishda birgina musiqa darslari bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Demakki, musiqa ta'lim – tarbiyaning faol shakllaridan o'rinni foydalanishi joizdir. Shunga ko'ra o'quvchilarini darsda, ya'ni musiqa darsi jarayonida sahna bilimlarini chuqurlashtirish va malakalarini mustahkamlash ko'p jihatdan sinfdan tashqari vaqtarda bajarish mumkin bo'lgan musiqa mashg'ulotlari orqali amalga oshiriladi.

Folklor etnografik ansamblı xuddi shu nuqtai nazardan ham samaralidir. Binobarin, unga ko'zlangan maqsad va vazifalar mukammal jamoani shakllantira borilishidir. Bunday tadbirlarning zamirida o'ziga xos murakkaliklar ham mavjuddir. Ular esa ansamblga zarur bo'lgan dastur va qo'llanmalardan tortib, toki ijrochilar-ansambl ishtirokchilari uchun cholg'ularu kiyim-sahna liboslarini hozirlashdan iboratdir. Hozirda bu vazifani amalga oshirishga qaratilgan ma'lum ishlar olib borilgan. Folklor ansambollarining rahbarlariga dastlabki ko'mak va yo'l-yo'riq tarzida maxsus dasturlar tayyorlanib nashr etilgan. Ushbu uslubiy ko'rsatmalar ezgu niyatlarni ro'yobga chiqarish maqsadida urinishlardan biri bo'lib, unda tashkil etilayotgan folklor ansamblining rahbari uchun ko'mak beruvchi usullar bayon etilgan. Bunda mutaxassislarning xayrli ishlari tufayli to'plangan notalarda nashr etilgan xalq kuylari va ular asosida e'lon qilingan ilmiy tadqiqotlar hamda mualliflarning bu boradagi shaxsiy, amaliy va nazariy kuzatuvlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Folklor ansamblini tarkibini o'zaro bog'liq bo'lган uch guruh: cholg'uchilar, aytimchilar-qo'shiqchilar va raqqosalar jamoasidan iborat bo'ladi. Mazkur guruhlarga esa ularning har biriga muvofiq musiqa qobiliyat egasi bo'lgan o'quvchilar jalb etiladi. O'z navbatida, rahbar har bir guruh ijrochidagi xususiyatlarni yaxshi bilishi va bu soha mutaxassislar maslahatlaridan foydalanib borishi maqsadga muvofikdir.

Sozandalar ansamblini shakllantirishda quyidagi soz ijrochiligiga ishtiyoqmand yoki ma'lum malakali o'quvchi-talabalar tanlab olinadi:

Doyra – 1 yoki 2 ta.

Nay – 1 ta.

G'ijjak – 1 ta.

Qonun – 1 ta.

Chang – 1 ta.

Qashqar rubob – 1 yoki 2 ta.

Afg'on rubob – 1 ta.

Dutor – 1 yoki 2 ta.

Ushbu cholg'ular mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda tanlanib, ansambl tarkibidan o'rinn oladi. Shu bilan birgalikda qo'shimcha tarzda milliy an'anaviy cholg'ulardan:

chanqovuz, sibizg'a, shupullak, surnay, do'mbira, qayroq, qoshiq, shiqildoqlardan ham unumli foydalaniladi. Imkoniyati mavjud joylarda esa bir cholg'u turidagi masalan, dutorchilar, chanqovuzchilar ansambllarini ham tuzish mumkin.

Xonandalar guruhi bo'yicha tanlov o'tkazilganda o'quvchi-talabalarning ovoz sifatlari, ya'ni ovoz tarovati, kuchlanish hajmi doirasiga alohida e'tibor beriladi. Bu jarayon natijasida 10-15 yoki 15-20 o'quvchi-talaba qabul qilinadi. O'z navbatida esa bu guruh orasidan yana yakkaxon qo'shiqchilar tanlanib, ajratib olinadi. Bunda o'quvchi-talabalarning ohang pardalari va ritm harakatlarini yaxshi his etishi, keng doirali va erkin ovozga ega bo'lishi kabi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki mashg'ulotlar mazmuni aytimchilik uchun zarur bo'lgan ijroviy malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Jumladan, o'quvchi-talaba nafas olish qoidalariga rioya qilishi, qomatni bukmasdan to'g'ri turishi, yelkalarni ko'tarmaslik, qorindan nafas olishi lozim. Ovozni ravon etish maqsadida unli harflar: a, o, u, i vositasida mashqlar bajarish tavsiya etiladi. Qo'shiqlarni o'rganish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Avvaliga rahbar mashg'ulotni qaysi asarni o'rganishdan boshlash ma'qul ekanligini puxta o'rganadi. So'ngra uni yaxshi namunali badiiyatda ijro etib ko'rsatishi yoki ovoz taratish vositasida sadolantirish va shu bilan ishtirokchilarni qo'shiqni o'rganishga uyushtirishi muhimdir. Bunda asar-qo'shiqning janri, badiiy mazmuni, mahalliy ijro uslubi kabilar yuzasidan qiziqarli suhbat o'tkazilib, so'ng uni amaliy o'rganishni boshlash ma'qul. Suhbat va o'rganish jarayonida mazkur asarni mashhur folklor ansambli ijro etgan grammyozuv va fotosuratlaridan foydalanish yanada yaxshi natijalar berishi mumkin.

Qo'shiq aytishdan oldin ovozlarni qo'shiqning parda ohanglariga sozlab, mashq kuylash, uni jumla tuzilmalariga bo'lib ohista o'rganish tavsiya etiladi. Shuningdek, qo'shiqning she'riy matnini alohida o'rganish ham maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir so'zni aniq talaffuz etishga qaratilgan mashqlarni bajarish lozim bo'ladi. So'zlarni bo'g'inlar asosida ifoda etish usulidan keng foydalanish samaralidir. Ma'lumki, xalq ijodiyotiga taalluqli aytimlarning she'rlari asosan barmoq vaznida yaratiladi.

Qo'shiq matnini bu tarzda o'rganishning o'z afzalliklari bor. Jumladan, bu usul mashg'ulot uchun ajratilgan vaqtini tejashi bilan birga kuy ritmini tezda o'zlashtirib olishda ham o'z samarasini beradi. Chunki aksariyat xalq qo'shiqlarining kuy ritmi she'riy misradagi bo'g'inlar sonidan kelib chiqadi.

Xonandalarni shakl – tuzilishiga qarab, yakkaxon va jamoaviy ijrolarga bo'lish mumkin. Jumladan, aytim band-naqorat shaklida ijod etilgan bo'lsa, demak shunga monand holda bandlarni yakkaxon, naqoratlarni esa jamoa guruhi kuylaydi. Agar shunday vaziyat yuzaga kelgan bo'lsa, u holda aytimning yakkaxon va jamoaviy qismlari alohida-alohida o'zlashtirilib, so'ngra birgalikda mashq qilinadi. Mabodo aytim lapar yoki yalla janrlariga mansub raqsbob bo'lsa, u holda raqs muallimi grammyozuv yoki yakka cholg'u jo'rligida raqsni sahnalashtirish ustida ish olib boradi. Har ikkala guruh tayyor bo'lgach esa ularni qo'shish orqali umumiyy mashg'ulotlarga o'tiladi. Barcha mashg'ulotlar o'quvchi-talabalarning yoshi va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq olib boriladi.

Dastlabki davrda cholg'uchilar ansambli jo'rnavozlikka hali yetarli darajada tayyor bo'lmasliklari mumkin. Shu bois mashg'ulot jarayonida jo'rnavozlikni rahbarning o'zi yakka cholg'uda bajarib beradi. Unga doyrachi usul berib turgani ma'qul. Ba'zan "Yor-yor"lar,

“Kelin salom”lar, terma va boshqa aytimlar doyra yoki qarsak usullari jo’rligida ham ijro etiladi. Agar asar fonogrammasi mavjud bo’lsa, unga jo’r bo’lib o’rganish oson kechadi.

Kichik guruhda kuylashdan bilim malakalariga ega bo’lgan o’quvchi-talabalar katta guruhga o’tib kuy-usuldan biroz murakkab va diapazon hajmi kengroq bo’lgan qo’shiqlarni ijro etish imkoniga ega bo’ladilar. Shuningdek, o’quvchi-talabalar qo’shiqni nota yozuviga qarab kuylashda ham ma’lum ko’nikmalar hosil qiladilar. Shularni nazarda tutib, rahbar qo’shiq o’rganishni mukammalroq usullaridan foydalanadi. Bunda avjlarni ko’proq tayanch nafas asosi va m’eyorida bajarish, doyra usullarining turli shakllariga mutanosib kuylay olish malakalarini rivojlantirishga e’tibor kuchaytiriladi. Kuylash malakalari rivojlangan iqtidorli, xushovoz yosh xonandalar imkoniyatlariga qarab kasbiy musiqa uslubidagi ayrim ashula hamda xalq orasida ommalashgan doston qo’shiqlarini ham aytishlari mumkin. Bunda har bir o’rganiladigan qo’shiq uning parda tuzilishi, ohang, usul xususiyatlari, badiiy mazmun va ijro uslublari suhbat vositasida atroflicha tushintirib beriladi. Shundan so’ng aytim yakkaxon holda yoki jamoaviy mufassal o’rganiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent.
2. G’. G’afurov “Xalq o’yinlari, qo’shiqlar va an'analariga bir nazar” Toshkent. Kamalak. 1992 yil.
3. F. Karomatov “O’zbek xalq musiqa merosi” Toshkent. G’. G’ulom. 1985 yil.
4. N. Qosimov “Musiqa folklor ijrochiligi” Toshkent. G’. G’ulom. 2003 yil.
5. F. Xidirov “Folklor ansamblar” Toshkent. FAN. 1983 yil.
6. D. Omonullaeva “Darsda xalq musiqa merosi” Toshkent. FAN. 1993 yil.
7. O. Ibrohimov “O’zbek xalq musiqa ijodi” Toshkent. O’qituvchi. 1994 yil.